

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**  
**FILOLOGIYA FAKULTETI**  
**O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Filologiya fakulteti dekani

\_\_\_\_\_ f.f.n. I.Xudoynazarov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2014- yil

“5220100 – Filologiya”(o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha  
bakalavr darajasini olish uchun 4- kurs 44-guruh talabasi

**RO‘ZIYEV FAZLIDDINING**

**FE‘L ZAMON SHAKLLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

**mavzusida yozgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Talaba \_\_\_\_\_ F.Ro‘ziyev

Ilmiy rahbar \_\_\_\_\_ dots.I.Xudoynazarov

“Himoyaga tavsiya etilsin”

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri

\_\_\_\_\_ dots. X.Jabborov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2014- yil.

**Qarshi – 2014**

## MUNDARIJA.

<b>ISHNING UMUMIY TAVSIFI</b> .....	3-4
<b>KIRISH</b> .....	5-8
<b>I BOB.</b> Hozirgi zamon fe'l formalarining ko'chma qo'llanishi.....	9-35
1.1. Aniq hozirgi zamon fe'l formalari.....	12-14
1.2. Aniq hozirgi va hozirgi-kelasi zamon fe'l formalari.....	15-24
1.3. Hozirgi - kelasi zamon fe'l formalarining o'tgan zamon ma'nosida qo'llanishi.....	
1.4. O'tgan zamon fe'l formalarining boshqa zamonga ko'chishi.....	
<b>II BOB.</b> O'tgan zamon fe'l formalarining ko'chma qo'llanishi.....	27
2.1. Kelasi zamon fe'l formalari hozirgi zamon ma'nosida.....	36-39
2.2. Kelasi zamon fe'l formalari o'tgan zamon ma'nosida kelishi.....	40-43
Xulosa.....	44
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	45-47

## ISHNING UMUMIY TAVSIFI

**Mavzuning dolzarbligi.** Fe'l so'z turkumi grammatik jihatdan serqirra bo'lib, uning barcha kategoriya va shakllarini turli usullar bilan o'rganish allaqachon boshlangan. Bunga A.G'ulomov va A.Hojivelarning ilmiy ishlari yaqqol misol bo'la oladi. Uslubiy xususiyatlari M. Sodiqova va J.Abdullajonovalar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Ammo fe'l zamon shakllarining ko'chma qo'llanilishi bilan bog'liq uslubiy xususiyatlarni yanada chuqur o'rganish masalasi dolzarb hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Ishning asosiy maqsadi fe'l zamon formalarining ko'chma ma'noda qo'llanilishi bilan hosil bo'lgan uslubiy xususiyatlarni aniqlash. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi:

- fe'l zamonlari va ularga xos xususiyatlarni o'rganish.
- Hozirgi zamon fe'l shakllarini ko'chma ma'noda qo'llash orqali hosil bo'ladigan uslubiy bo'yoqlarni aniqlash.
- O'tgan zamon fe'l formalarini ko'chma qo'llash orqali hosil bo'ladigan qo'shimcha ma'no bo'yoqlarini belgilash.
- Kelasi zamon fe'l shakllarining uslubiy xususiyatlarini tadqiq qilish.

**Bitiruv malakaviy ishning obyekti .** Hozirgi o'zbek adabiy tili, badiiy adabiyot va vaqtli matbuot materiallari. Ilmiy masalalarda o'zbek tilshunoslarining asarlariga tayanildi.

**Ishning metodologik asosi va tadqiq usullari.** Ishning metodologik asosini narsa va hodisalar o'zaro bog'langan holda doimiy taraqqiyotda ekanligini tan

oluvchi falsafadir. Ishda sinxron, qiyosiy va semantik- stilistik usullardan foydalaniladi.

**Mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati.** Mazkur ish o‘zbek uslubiyati masalalariga nazariy jihatdan oydinlik kiritadi. Amaliy jihatdan esa talabalarga maxsus kurs o‘qish, maktablarda dars jarayonida foyda keltiradi.

**Ishning tuzilishi va tartibi.** Ish kirish, 2 bob , xulosa va foydalanilgan adabiyotla ro‘yxatidan iborat. 47 betni tashkil qiladi.

## KIRISH

O‘zbek tili o‘zbek xalqi orasida juda qadim zamonlardan beri aloqa vositasi sifatida qo‘llanib kelinmoqda. Tilimizning ravnaq topishida davlatimiz va respublika rahbariyati katta g‘amxo‘rlik qilmoqda. Chunki ona tili hurmatli Prezidentimiz I.Karimov ta’kidlaganidek, “Ona tili – bu millatning ruhidir” haqiqatdan ham, tilda millatning ruhi, uning dunyoqarashi madaniyati to‘la aks ettirilgan bo‘ladi. Shuning uchun ham ona tilining barcha leksik- semantik , grammatik xususiyatlarini , shuningdek kishilarga ta’sir etuvchi emotsional-ekspressiv tomonlarini o‘rganish ham nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

O‘zbek tili morfologiyasida fe’l so‘z tukumi juda katta o‘rinni egallaydi. Fe’l boshqa turkumlarga qaraganda grammatik kategoriya va shakllarga nihoyatda boydir. Fe’lning grammatik xususiyatlari o‘zbek tilshunosligida atroflicha o‘rganilgan. Ammo fe’l formalarining jumladan zamon shakllarining uslubiy xususiyatlarini o‘rganish , tadqiq qilish hozir ham davom ettirilmoqda.

O‘zbek tilshunosligi qisqa vaqt ichida grammatik muammolarni ilmiy tekshirish rejasida yoritish sohasida katta yutuqlarga erishdi: morfologiya va sintaksis doir bir qancha mavzular monografik tarzda yoritildi. Bu ishlar , birinchidan, o‘zbek tili ilmiy grammatikasining zaminini yaratdi, ikkinchidan, til sohasidagi amaliy ishlarimizning- adabiy tilning holatini takomillashtirish, o‘qish-o‘qitish sohasida qo‘llanmalar yaratish kabi ishlarning sifatini oshirish imkoniyatini berdi.

Morfologiyaning eng yirik markazlaridan bo‘lgan , o‘z grammatik shakllari, shuningdek sintaktik vazifasi va salmog‘ining boyligi bilan ajralib turadiganmurakkab fe’l sohasi bo‘yicha ham jiddiy ishlar qilindi: fe’l zamonlari , mayl, fe’lning tarkibi jihatidan turlari, to‘liqsiz fe’l, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomlari kabi bir qancha mavzular maxsus yoritildi. Bu tipdagi mavzularning uslubiy asosda yoritilishi tilshunoslik uchungina emas, balki adabiyotshunoslik

uchun ham juda muhimdir. Uslubiy yoʻnalishdagi tekshirishlar oʻzbek tilshunosligi sohasida yaqindagina boshlandi. Oʻzbek tili uslubshunosligi fani ham juda yosh, hali leksik stilistika sohasida ham grammatik stilistika sohasida ham qilinadigan ishlar koʻp.

Bunday (feʼl zamon formalarining koʻchma qoʻllanilishi kabi) mavzularning qanchalik dolzarb ekanligi tilshunos olimlarimiz tomonidan taʼkidlanib kelinadi. 1969 yilda Toshkentda boʻlib oʻtgan Respublika tilshunoslik konferensiyasi monografik tarzida tekshirilishi zarur boʻlgan dolzarb muammolar qatorida “zamon formalarining stilistik xususiyati” mavzusini ham koʻrsatib oʻtdi.

Bu ish feʼl zamon koʻrsatkichlarining turli janrdagi badiiy ilmiy adabiyotlarda, pulitsistik ishlarda, shuningdek matbuot tilida jonli nutqda qoʻllanishi yuzasidan olib borgan kuzatishlarimizning natijasidir.

Feʼlning zamolnlari kabi keng, murakkab masalaning biz oʻrgangan soha bilan bevosita bogʻlangan qismlarida ham toʻla yechilmagan ayrim oʻrinlar bor: feʼl zamon formalari hali umumlashtirilib, bir aniq sistemaga solinib, qatʼiy uzil-kesil tusdagi bir klassifikatsiya holiga keltirilgan emas, har bir zamonning ichki boʻlinishida- turlarida va atalishida har xilliklar bor. Bizning ayrim oʻrinlarda , koʻchma qoʻllanish bilan birga , oʻsha formaning oʻzi haqida soʻz yuritganimizning har xil qarashlarni bayon qilganimizning boisi ham baʼzi masalalarning munozarali ekanligi bilan bogʻliqligi aniq. Bu ishning maqsadi feʼl zamon shakllarining koʻchma qoʻllanish hollarini , buning turli koʻrinishlarini aniqlash, koʻchirishning xususiyatlarini – sharoitlari va vazifalarini yoritishdan iboratdir. Grammatik formalarning uslubiy maqsadlarda koʻchma qoʻllanilishi har bir tilda sistema holidadir. Bu sistemaning qonuniyatlarini aniqlash bilan shugʻullanadigan maxsus fan- grammatik stilistika endigina rivojlanib bormoqda. Maʼlumki oʻzbek tilshunosligi fanining oʻzi kabi oʻzbekstilistikasi fani ham oʻzbek tilshunosligining soʻngi yutuqlari zahirida maydonga keldi.

Fe'l so'zlarning leksik-grammatik kategoriyalari doirasida eng muhim rol o'ynaydigan turkum bo'lib, uning murakkabligi, ma'naviy xususiyatlarning xilma xilligi, grammatik kategoriyalarga boyligi tilshunoslikka oid adabiyotlarda ta'kidlab o'tilgan.

Fe'ning o'ziga xos grammatik xususiyatlaridan biri uning zamon kategoriyasidir. Ma'lumki, har qanday harakat makon va zamon bilan bog'langan bo'ladi. Dunyoda biror til yo'qki unda fikr zamonsiz ifodalangan bo'lsa.

Fe'ning zamon kategoriyasi obyektiv voqelikning tilda aks ettirishning bir ko'rinishidir: Zamon hodisasining, zamon tushunchasining tildagi ifodasidir. Tilda bu tushunchani ifodalovchi vositalardan biri fe'ning zamon ko'rsatkichlaridir.

Tilshunoslik fanining keyingi vaqtlardagi tekshirishlari gapdagi zamon hodisasining o'z ayrim xususiyalariga ega ekanligini, uning maxsus qaralishi zarurligini ko'rsatdi: fe'l zamon formalari paradigmatisi bilan birga gap paradigmatisi iborasi ham maydonga keldi. Bu ikki ibora o'zaro farqli hodisalarni bildiradi. Chunki gapning ham zamon kategoriyasi mavjud, u fe'ning zamon kategoriyasidan farqlidir.

Yuqoridagilarning hammasi fe'ning zamon kategoriyasi masalasining juda keng va murakkab ekanligi, shunga ko'ra bu sohada anchagina masalalar borligi, ayrim qarashlarning bir- biriga zid ekanligi, fe'l zamonlari masalasiga qiziqishning hamon kuchli ekanligi, buning sabablarini aniq ko'rsatib turadi.

Rus tilshunosligida fe'l mavzusi bo'yicha juda ko'p ishlar qilindi. Bu ishlar fe'l kategoriyasining umumlingvistik planda ham, rus tilshunosligi sohasida ham, turkologiyada ham ancha keng va chuqur ishlanganligini ko'rsatadi. Rus tilshunosligida zamon formalarining ko'chishi ayniqsa A.M.Peshkovskiyning ishlarida, keyingi paydlarda V.V.Vinogradov, A.V.Bondarko kabi olimlarning asarlarida chuqur tahlil qilindi.

Fe'l zamon ko'rsatkichlarining ko'chma qo'llanishi masalasini yoritish turkologiyada katta tarixga ega emas, nisbatan yangi hodisa.

Turkologiyada N.K.Dmitriyev, A.N.Kononov kabi olimlarning o'zbek tilshunosligida esa A.G'.G'ulomov, A.Hojiyev va M.Sodiqovalarning monografik ishlari ahamiyatlidir.

Mazkur ishda S.N.Ivanov ,A.G'.G'ulomov , A.H.Hojiyev ,M.Sodiqova kabi tilshunoslarning asarlariga tayanamiz.



## **1. BOB. Hozirgi zamon fe'l formalarining ko'chma qo'llanishi.**

O'zbek tilida hozirgi zamon fe'llarining bunday qo'llanishi bir qancha ko'rinishlarga ega. Ular o'tgan zamon ma'nosi uchun, shuningdek kelasi zamon ma'nosi uchun ham qo'llana oladi.

Hozirgi zamon fe'l formalari orqali ifodalangan, nutq paytiga tegishli bo'lgan harakat davomiylik xususiyatiga ega. Hozirgi zamon formalari orqali ifodalangan harakat o'tgan va kelasi zamon bilan ham bog'lanadi: harakatning nutq paytidan oldin boshlanganligi, shu vaqtda davom etayotganligi va bu davom etishning kelasi zamonga ham o'tishi. Bunday kengayish hatto umumzamon bilan bog'lanishi mumkin. Lekin bu xususiyatga hozirgi zamon formalarining hamma ko'rinishlari ham ega bo'lavermaydi. Chunki ba'za hozirgi zamon formalari orqali ifodalangan harakat kelasi zamon doirasiga o'tmasligi mumkin. Bu hol o'sha fe'l zamon ko'rsatkichining ma'nosi, payt bildiradigan leksik vositalar va matn bilan aloqador. Shu asosda hozirgi zamon formalarni ikki turga ajratish kelib chiqadi. Bu turlarning har bir o'z ichida yana har xil ma'naviy ayrimliklarga ega masalan, aniq hozirgi zamon formalari orqali ifodalangan harakat (harakat deganda, holatni ham ko'zda tutamiz) o'tgan zamonga taalluqli bo'lishi mumkin. Lekin uning nutq paytidan keyin ham davom etishi mo'ljallanmaydi. Hozirgi – kelasi zamon formalari har uchchala zamon ma'nosidagi elementlarni o'z ichiga olish xususiyatiga ega. Ularning bu xususiyati ko'chma qo'llanishga asos bo'ladi. Umuman olganda, hozirgi zamon formalari ko'p ma'nolidir. Ularda to'g'ri ma'nodagi qo'llanish bilan birga, ko'chma qo'llanish grammatik sinonimini keltirib chiqaradi. U o'z motiviga ega bo'ladi.

Doimiy materiallar aniq hozirgi zamon formasining hamma turlari, shuningdek, hozirgi – kelasi zamon formalari o'tgan zamon ma'nosi uchun ko'chirilishi mumkin ekanligini ko'rsatadi. Ko'chma qo'llangan hozirgi hozirgi zamon formalari nutq paytidan oldin bajarilgan harakatlarni ifodalaydi. Bunda bo'lib o'tgan voqea va hodisalar eslash orqali bayon qilinib, ular butun mazmun

boyliги bilan so‘zlovchi ko‘zi oldiga keltiriladi. Shu maqsadda hozirgi zamon formalari o‘tgan zamon ma’nosi ko‘chiriladi. Lekin o‘tgan zamon ma’nosi uchun ko‘chirilgan bu forma shu o‘rinda ham o‘zining asosiy o‘ziga xos xususiyatini ya’ni hozirgi zamon ma’nosi bilan bog‘langanlik holatini yo‘qotmaydi. Matnda hozirgi zamon formalari o‘tgan zamon fe’llari bilan parallel qo‘llaniladi. O‘tgan zamon formalari bo‘lmaganda, voqealarning o‘tgan zamonga tegishli ekanligi matn mazmunidan bilinib turadi. Hozirgi zamonning hamma turlari o‘tgan zamonning turli tiplari uchun ko‘chiriladi. Ko‘chirishning umumiy tabiatiga mos ravishda ba’zan bir kun, kunlarning birida kabi elementlar ham ishtirok etadi. Misol: Tikka qirga yo‘l oldik. Hali ketayapmiz, hali ketayapmiz. Qani lolazor ko‘rina qolsa! (Sayyor). Yo‘l oldik deyilgach harakatning davomi tabiiy hozirgi zamonga to‘g‘ri keladi. Shunga ko‘ra – yap formali fe’l qo‘llangan, hali so‘zi ham shunga mos.

Ba’zan shunday hol ham uchraydi: hamma fe’llar o‘tgan zamon formasida qo‘llangan bo‘ladi. Bunday hollarda shu birgina hozirgi zamon formasi harakatning o‘tgan zamonga oidligini bildiradi. Bu harakatlar bir paytda bajarilganlikni bildirishi ham mumkin. Masalan: Olmadingizmi?! – ololdim! Yumshoq xonaga emas qattiq xonaga- fuqaro xonasiga oldim! Shunga ham yumshoqning puli ketdi, chipta olib chiqib berib , xonaga o‘tqazib qo‘yadiganlarga pul berib oldirdim. Boshqa chora yo‘q! Chiqib olsak, marra bizniki, mulla aka. Saharda yetkazib boradi deyishyapti. (Sobir Abdulla).

Bunday qurilmalarda ba’zan tartib boshqacha bo‘ladi: Ana shunday harakatlarning ifodasi uchun ishlatilgan hozirgi zamon formalari matn boshida keltirilishi , o‘tgan zamon formalari esa matn oxirida keltirilishi mumkin. Bu hollarda ham harakatning nutq paytidan oldin- ketin sodir bo‘lganligi ma’nosi anglashiladi. Misol: ... maydalab, ezib, yomg‘ir yog‘moqda. Qayoqqa qaramay ko‘z o‘ngimda tuman... go‘yo olam faqat tumandan yaralganday. O‘rmon ichra adashib , tentirardim. (Sharq Yulduzi).

Ko‘rinadiki hikoya qilishda tabiat manzaralarining jonli ko‘rinishini, qahramonlarning xarakterlarini, ichki kechinmalarini berish uchun voqealarning yaqqol ifodasini tasvirlash uchun ko‘p o‘inlarda hozirgi zamon formalari o‘tgan zamon ma‘nosi uchun ko‘chiriladi: so‘zlovchi o‘tgan voqealarni ko‘z oldiga keltirib, yangidan tasavvur etadi. Tinglovchining ham shu voqealarni o‘zi kabi tasavvur qilishiga hozir bo‘layotgandek anglashiga harakat qiladi. Ana shunday ruhiy talab natijasida hozirgi zamon fe‘l formalaridan o‘tgan zamon voqealarini tasvirlash uchun foydalaniladi. Zamon formasining ko‘chma qo‘llanilishi jonli-so‘zlashuv nutqida ko‘p uchraydi. So‘zlashuvda suhbatdoshlar bunday usulni tez tez qo‘llab turadilar. Bu bilan nutqning ta‘sirchanligini ta‘minlaydilar. Chunki jonli nutqdagi so‘zlar turli stilistik bo‘yog‘i bilan adabiy tilga kirib keladi. □

### **1.1. Aniq hozirgi zamon fe'l formalari.**

Aniq hozirgi zamon fe'llarining o'tgan zamon ma'nosi uchun ko'chirilishi shunday ko'rinishlarga ega.

O'qilyapti tipidagi (-yap affiksi va shaxs- son qo'shimchalarini qo'shish bilan yasalgan). Hozirgi zamon formalari yaqin o'tgan zamon ma'nosi uchun ko'chiiladi.

Nutq paytidan oldin bo'lib shtgan voqea va hodisalarni berishda hozirgi zamonning shu turdagi ko'proq ko'proq foydalaniladi. Misollar: Bu mamlakat tog'lik ekan... mana avtobusdan tushgandan buyon, yuqorilab ketayapmiz. Qani endi pastlik ham kelsa-yu , nafasimizni rostlab olsak (Sayyor).

Bu misollar o'z hamrohi bilan suhbatlashayotgan so'zlovchining hikoyasidan olingan. Voqea o'tgan zamonga tegishli. So'zlovchi o'z hikoyasini bo'lgan voqealar haqida xabar berish bilan boshlaydi. Suhbat davomida tinglovchi so'z oldida bo'lib o'tgan voqealarni hozir bo'layotgandek qilib tasvirlash uchun harakat qiladi. O'z hikoyasida hozirgi zamon formaldarini qo'llaydi. Natijada yo'lning jonli sur'ati tinglovchi ko'z oldida gavdalanadi.

Meni Toshkentga chaqirishyapti. – hozirgina telefon qilib aytishdi.

Ko'pgami?

Besh kunga deyishyapti (Rustam Rahmonov)

Misolidagi deyishyapti ko'rsatadiki, bunday o'rinlardagi ko'chirish vaqtni "sal beriga surish" mazmuniga ega bo'lmasa ham (deyishgan –deyishadi-deyishyapti). Bu jonli tasvirlashning ta'sirchanligi sezilmaydi.

Ko'chirishning tasodifan hayratda qolish, kutilmaganlik mazmuni bilan bog'langan holatini ko'rsatuvchi tipi bilan bu xarakterga ega bo'lmagan tipida farq bor: Ziyofat endi qizigan paytda eshik taqillab qoldi. Xolposhsha xola yugurib

borib eshikni ochdi. Xolposhsha xola qay ko'z bilan ko'rsinki, eshikdan boyagi militsioner bostirib kelyapti-da! Kampirning oyoq- qo'llari bo'shashib dag'-dag' qaltiray boshladi (Farhod Musajonov). – bahorga ham chiqdik. Havo biroz yurishishi bilan uy qurishni boshlaymiz. Oshna – og'aynilar ham ko'maklashmoqchi bo'lishyapti. (Sobir Abdulla).

Ba'zi o'tgan zamonga oid voqea – hodisalarni tasvirlashda hozirgi zamon formasi mos tushadi. Masalan: ...oqshom. poytaxtga yaqinlashyapmiz. Osmo temir ko'prik tagidan o'tyapmiz. Oftob ro'paramizga kelib, go'yo daryoning oqimi boshida bizni kutayotganday. (J.Jabborov).

Bu formadagi (boryapmiz) aniq hozirgi zamon feli uzoq o'tgan zamon ma'nosi uchun qo'llanishi mumkin. Uzoq o'tgan zamon formalari orqali odatda nutq paytidan ancha ilgari bajarilgan harakatlar ifodalanadi. So'zlovchi ilgari ko'rganlarini hikoya qiladi. Hikoya davomida kutilmagan voqealar yuz berganligi kutilmagan hodisalar ustidan chiqib qolganlik kabi ma'nolarni anglatishda hozirgi zamon fe'llarining shu tipidan foydalaniladi. Misollar: 1. Bilasizmi 1926 yili Tohirjon bilan Toshkentga sayohatga bordim. Shunda istirohat bog'iga qadam qo'ydik. Bog'ning ochiq sahnasida odamlar musiqa chalyapti. O'rtada bir kishi cho'p ushlab ulaga nimanidir tayinlab, butun vujudi bilan harakat qilib o'rgatyapti. Hammasi ajoyibot bo'lib ko'rindi ko'zimga. (Muhammadali). 2. Birdan nimadir lip etib o'tib ketganday tuyuldi. Diqqat bilan tikildim. Novcha bir askar kaskasini qovog'iga tushurib, xutor chetidan hovliga kirib borayapti (gazeta).

Kutilmaganda yuz bergan , bo'lib o'tgan hodisani tasvirlashda o'tgan zamon ma'nosi uchun hozirgi zamon formasining mos kelishi, ko'pincha yana bir matnga xos xususiyat – oldingi qismda shart formasining ishlatilgan bo'lishi bilan bog'liq ko'rinadi. Misol: snaryad parchasi kelib burnimning uchini uchirib ketdi. Hushimdan ketib qolibman. O'zimga kelib qaragam bir zabardast yigit meni opichlab , ko'tarib olib, medsanbatga olib ketayapti. (Habib No'mon).

Ko‘chgan ma’noda qo‘llash natijasida grammatik sinonimiya tug‘ilib, ikki zamon formasi orasida ko‘chma qo‘llanilgan hozirgi zamon fe’llarini uzoq o‘tgan zamon formasi bilan almashtirish ham mumkin bo‘ladi. Misol: yo‘lda “Amur” va “Saratov” kemalarimiz bilan uchrashdik. Ular safardan faytishyapti. (Jumaniyoz Jabborov).

Aniq hozirgi zamon fe’llarining bu formasi (o‘qiyapti). O‘tgan zamon davom fe’li ma’nosi uchun qo‘llanadi. Davomi nutq paytiga aloqador bo‘lgan harakatlarni berishda ham hozirgi zamon formasidan foydalaniladi. Bunda hozirgi zamon formalari ko‘proq tabiat manzaralarini tasvirlashda, voqealarning zanjirini bayon etishda ishlatiladi:

Bahor...tabiatni tomosha qildim. Atrofda oftob yashnayapti. Yangi popuk chiqargan qamishlar yel bilan o‘ynashyapti. Osmoni zaminda qaychiga o‘xshab turna karvoni qo‘y haydagan cho‘pondek qurelab o‘tyapti. Osmon shu qadar so‘ngsiz. (Said Ahmad).

## 1.2. Aniq hozirgi va hozirgi-kelasi zamon fe'l formalari.

O'tgan zamonda uzluksiz davom etgan harakatlarni berishda aniq hozirgi zamon formasi bilan birga hozirgi- kelasi zamon formalari ham ishlatiladi. Bunday qo'llash harakati cheklanmaganlik ma'nosini anglatadi.

1. Biz ham bordik... Istirohat bog'ining fayzi bugun o'zgacha. Chetlarida yuz tuman gullar tovlanib turgan yo'lkadan bog' to'ridagi yozlik klub tomon gurros agitatorlar borishyapti. Soy bo'yidagi otalar choyxonasida gurunglashib o'tirgan mo'ysafidlar bu quvnoq chehralarga bu jonli gullarga havaslanib , hatto bir qadar suqlanib qarashadi. (Rustam Rahmonov).

2.Ko'chalar jim jit edi. ammo ahyon- ahyonda uzoqdan tars – turs ovoz eshitilib turibdi. Soldatlar biqina biqina allaqayoqqa chopib ketishyapti. Yo'lda bitta – yarimta uchrab qoladi. Qo'rqa- pisa kelayapmiz. Rus xotinlari eshikni yopib, deraza pardalarini tushirib qo'yishgan.(Oybek).

Bu to'plagan misollar shuni ko'rsatdiki, bunday “aralash” (aniq hozirgi zamon formasi va hozirgi kelasi zamon formasi ) qo'llash ma'lum izchillikka ega; bir subyektning bir necha ishi ifodalanganda, fe'l zamon formalari bir xil bo'ladi. (U to'planganlarga qarab jilmayapti va qo'lini silkib hammani tabriklayapti), bir necha subyektning ishlari (demak bir necha ish ) ifodalanganda “aralash” qo'llash mumkin bo'ladi. (Bolalar quvnoq ashulalar aytishyapti, chollar ularga maroq bilan qarashadi.)-bolalar... aytishyapti. Chol – qarashyapti. (odatdagi ikki ish).- bolalar... aytishyapti...chollar qarashadi: keyingisida ikki ishning bog'lanishi nisbatan kuchsiz. Avvalgisida birinchi qism tugallanishni ko'rsatsa , keyingisida bu qism hikoya qilishning yangi qism boshlanayotganligidan darak berayotgandek tuyuladi. Bunday hikoya qilishda, mazmunga qarab, yaqin o'tgan zamon formalari qo'llangan bo'lishi ham mumkin. Bunda ham harakatning birin ketinligi, davomiyligi kabi ma'nolar anglashiladi.

1.Oftob charaqlab, sahroni yondiryapti. Tuya o'rkachlariga o'xshash kultepaliklarini oshib borsak, cho'ponbobo bilan uch- to'rt bola ko'rindi. Ular zo'r berib belkurak ketmonlar bilan qum surishyapti. Bo'ron yugurib borib, boboyning qo'lidan ketmonni oldida ishga tushdi. (Hakim Nazir).

Orada o'tgan zamon davom fe'li formasi ishtirok etgan bo'lishi ham mumkin: 1. Bu yerda operatsiya stoli yo'q. Shuning uchun ham bemor yerda yotibdi. Xirurg esa tiz cho'kib, qo'l chiroq yorug'ida ishlayapti. U ko'plab operatsiyalarni boplabbajargan epchil qo'llarini ishga solarkan , dilida o'ylardi: "Yana ozgina sabr qil do'stim! Bir- ikki daqiqagina. So'ngra ko'rmagandek bo'lib ketasan! (gazeta)". 2. Mahkamadagilarning hammasi kelib, faqat chasavoyning o'zi qoldi. Bittasi qamoqxonaning atrofini aylanib yurardi. Bir kishini tuynuk oldiga qorovul qilib qo'ydik. Chasavoy uzoqlashganda ishlab, yaqinlashganda jim turardik. Navbatma- navbat zo'r berardik (gazeta).

O'qimoqda formasidagi (-moqda affiksi va shaxs- son qo'shimchalarining qo'shilishi bilan hosil bo'lgan) aniq hozirgi zamon formalari yaqin o'tgan zamon fomasi uchun ko'chiriladi. Bunday matnda o'tgan zamon formasidagi fe'llar ham qatnashadi. Bu bilan zamon ko'chishi yana ham aniq seziladi: 1. Es- hushimni yig'ishtirib oldim. Qat'iy qarorga keldim. Bolani quchoqlab tramvayga tushdim. Uyga qarab ketmoqdaman. Bola yig'laydi. Yo'lovchilar bezovta bo'la boshladilar. (G'.G'ulom.). 2. Keladigan fazilat ahllari siz bilan o'ltirishni orzu qilmoqdalar. U kishilar bu yerga to'planishib, bugun Muqimiyni Buxoroga uzatmoqchilar. (Sobir Abdulla.)

Bu tipdagi fe'l formalari o'tgan zamon davom fe'li ma'nosi o'rnida ko'chma qo'llanadi. Hozirgi zamonning boshqa turlariga qaraganda bu turning leksik ma'nosidan davomiylik aniqroq anglashilib turadi. Nutqda o'tgan zamon davom fe'li formalari bilan hozirgi zamon formalari parallel kela oladi. Matn mazmunidan voqealarning o'tgan zamonga tegishli ekanligi bilinib turadi.



1. Muhammad Aminxo‘ja yolg‘iz bozor aylandi: bozor kuni birov bilan birovning ishi yo‘q, har kim o‘zi hohlagan tomonga shoshilmoqda. Muhammad Aminxo‘ja hech kimni tanimagandek, Muhammad Aminxo‘jani ham hech kim tanimas edi. (Sobir Abdulla).

2. Kichikroq vodiyning har yer har yeridan quyuq tutun ko‘tarilmoqda. Qishloq batamom yonib bo‘lgan. Bu tutun nimadan chiqayotgani ma’lum emas. Yon bag‘ridagi daraxtzorda faqat bitta uy oqarib turardi. Daraxtlar sukut qilib, “yana nima bo‘lar ekan” deb, quloq solib turganday tuyular edi. (A. Qahhor).

3. Zal oyoqqa turib yangi san‘atkorning tug‘ilishini tabrik etmoqda. Hammaning ko‘zida hayajon, shodlik... Gulchehra karmenning mashhur “Sevgi” ariyasini ijro etardi. (Sarvar Azimov).

Bu ko‘chishning quyidagi ko‘rinishi ham uchraydi: o‘tgan zamon fe‘lli formasi ishtirok etmaydi. Voqea butunlay hozirgi zamonga ko‘chiriladi. Mazmun esa o‘tgan zamonga tegishli bo‘ladi. Matnda payt bildiruvchi leksik elementlar bo‘lishi ham mumkin:

1. Bir gala bola qor to‘zitib o‘ynamoqdi. Men ham qo‘shilib ketaman. Dam urishib, dam yarashib, charchaguncha o‘ynaymiz. Qorning ertalabki shiddatli yog‘ishi to‘xtagan, faqat yengilgina uchqunlamoqda. (Oybek)

Ayrim parchalarda o‘tgan zamon fe‘li formalari bilan bir qatorda ham hozirgi-kelasi zamon, ham hozirgi zamon fe‘lining boshqa formalari ishlatiladi.

1. Sohildagi avtobus karvoni bizni bag‘riga singdirib, Sofiya yo‘liga tushib oldi. Tekis, ravon yo‘l ulkan, ajobiy bir kitobning sherozasidirki, ikki yonimiz, ikki sahifa. G‘oyat qiziq, hali o‘qilmagan afsonalar kitobtning sahifasiday ikki ma’noni o‘qib bormoqdamiz go‘yo. Manzaralarning uzluksiz, rangba-rang oqimi qardosh diyor haqidagi tasavvurlarimizni hayotiyashtirib bormoqda (J. Jabborov).

2.Olisda yangi qurilgan anhor kanalida suv jimirlab oqar ekan, u son-sanoqsiz ariqlarga bo‘linib, dalalarga jon kiritmoqda. Allaqayoqda gurillayotgan traktorning shovqinini, qizlarning sho‘x qo‘shiqlari adirlarga urilib aks-sado beradi. (Saida Zunnunova)

O‘tgan zamon doirasidagi so‘zlovchiga keyin ma’lum bo‘lgan, kutilmagan voqea-hodisalarning berilishida ham shu formadan foydalanish hodisasi uchraydi: Bir mahal ko‘zimni ochsam, g‘ia- shira tong otmoqda. Yulduzlar galma-gal botganday, sekin –asta so‘na boradilar. (Oybek).

Bu misolda otmoqda formasining o‘tgan zamoni fe’l ma’nosida qo‘llanganligi, voqeaning kutilmaganligi bir mahal ko‘zimni ochsam birikmasidan ham bilinib turadi. (Yuqoridagi qarasam elementli birikmani eslang), otmoqda fe’li formasi “otayotgan ekan, men bilmabman” kabi ma’no mazmunni beradi.

Kelayotir , kelayotibdi formalaridagi (-yotir, -yotib affikslari va shaxs – son ko‘rsatkichlarining qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan. ). Aniq hozirgi zamon fe’li formalari yaqin o‘tgan zamon ma’nosi uchun ko‘chiriladi: - ishlar qalay? Daladan keldingmi? Men yo‘q, ish qanaqa borayotibdi. (A.Qahhor).

Quyidagi misollarda harakatning nutq paytidan biroz oldin bajarilganligi ifodalanadi. – Qani yigit, - dedi juvon otning yaydoq sag‘risini ko‘rsatib, - mining! Yo‘q deganimga unamadi. Mingashdim. Juvon poshnasi bilan niquvdi, ot jadallik bilan yurib ketdi. Yomg‘ir borgan sari avjiga chiqayotibdi. Ot ham tayg‘anib-tayg‘anib ketayapti. Shu zayl yetib borganimizni ham bilmay qoldim (U.Nazarov). matndagi chiqayotibdi hozirgi zamon fe’li formasi ko‘chma qo‘llangan.

Bunday tipdagi hozirgi zamon formalarining o‘tgan zamon ma’nosi uchun ko‘chirilishi, ayniqsa, folklor asarlarda ko‘p uchraydi. Doimiy materiallar shuni ko‘rsatadiki, - yotib formasi bilan yasalgan hozirgi zamon fe’llari ko‘proq badiiy adabiyotlarda va jonli so‘zlashuvda ishlatilsa tasviriylikni kuchaytirish maqsadida dostonlarda – yotir formasi ko‘proq qo‘llanadi: ...ana shunda Qalmoqlar to‘planib ,

ular ham kunda yotadigan yeriga yetdi. Chodirning joyiga borib hisoblasa. Botriman degani Avazxonning qo'lida o'libdi. Ikkovora, uchchovoar, bir xili o'novora dobirlashib, jobirlashib, gaplashayotibdi, o'lganini hisoblashayotibdi. (Ergash jumanbulbul o'g'li).

Mazkur misralarda voqeaning o'tgan zamonga oidligi matndagi o'tgan zamon fe'li formalaridan bilinib turadi, quyidagi misollarda esa hamma formalar hozirgi zamonga tegishli bo'ladi. Ammo hozirgi zamon formasining ko'chma qo'llanayotganligi boshqa vositalar orqali anglashilib turadi.

Yashinday bo'l jonivor G'irko'k otilib,

Ustida Avazning joni sotilib.

Nazarkarda go'ro'g'lining G'iroti,

Borayotir suvsiz yo'lda yutinib.

(Ergash Jumanbulbul o'g'li)

Jonivor odamday ko'zin yoshlaydi,

Tinmasdan oldiga qarab kishnaydi,

Og'zin ochib borayotir G'irko'k ot.

Har do'ngsakka o'zin otib tashlaydi.

(Ergash Jumanbulbul o'g'li)

Borayotir, borayotibdi formali (- yotir,- yotib affiksi bilan yasalgan) aniq hozirgi zamon fe'llari o'tgan zamon davom fe'li ma'nosi uchun ko'chiriladi. Nutq paytidan oldin boshlangan, davomi nutq paytiga ham aloqador bo'lgan harakatlarni berishda aniq hozirgi zamonning shu formasidan foydalaniladi. Bunday qo'llash ko'pincha tabiat manzaralarining tasvirida uchraydi: Soy bo'yidagi shinam

choyxona odamlar bilan gavjum. Kimdir ashula aytayotir. Suhbatdoshim ashula kuyiga maftun bosh chayqab o'tirardi. (gazeta).

Ko'rsatilgan tipdagi aniq hozirgi zamon fe'li formasi uzoq o'tgan ma'nosi uchun ko'chirilishi ham mumkin. Bunda so'zlovchi ilgari ko'rganlarini eslaydi va hikoya qiladi. Hikoya davomida kutilmagan voqealar yuz berganligi tasodiflar ustidan chiqib qolgan kabi ma'nolar ifodalanadi. Bunday bayon etishda shart mayli formalaridagi ayrim fe'llar (qarasa, ko'rsa, ochsa, borsa, bilsa) kabi bo'ladi. Agar mazmunning talabiga ko'ra to'liqsiz fe'l eshitish shaklida kelishi lozim bo'lsa- yu , bu ham ko'chma qo'llangan bo'lsa matnda o'tgan zamon eshitilganlik formasi qatnashadi:

1.Ana shunday o'z-o'zidan o'ylab gapirib kelayotir edi, oldidan bir soy chiqib qoldi. Shunday qarasa, soy betini olib bir kal kelayotir. (Ergash Jumanbulbul o'g'li).

2.Ahmadjon uyulib qo'yilgan g'ishtlarnioralab, chorrahaga chiqdi, qarasa , tor ko'chada to'rt nemis avtomatchisi olti qizil askarni oldiga solib ketayotibdi. (A.Qahhor).

“Boribman” formasidagi fe'llar (- b affiksi shaxs – son ko'rsatkichlari bilan yasalgan aniq hozirgi zamon formalari ) yaqin o'tgan zamon o'rnida qo'llanadi. O'zbek tilshunosligiga oid adabiyotlarda yotmoq , turmoq, yurmoq, o'tirmoq fe'llari orqali hozirgi zamon ma'nosi ifodalanishi aytiladi va bu fe'l formalarining semantikasidagi asosiy xususiyat holat anglatishi ekanligini izohlanadi: Ana , xurmachang ariq bo'yida turibdi. Olib keta qol. (Mirmuhsin). Endi Elobodda ishlab yuribdi.

Sanab o'tilgan fe'llar orqali nutq jarayoni bilan bog'langan holat ma'nosining ifodalanishi matnning shuningdek, fe'lning ma'lum formada kelish hodisasining kuchi bilan bo'lishi aniq. Ularning qo'llanishida ikki holat bor: 1. Bular ko'makchi fe'l bo'lib qo'llanadi (ko'makchi fe'l atamasini shartli ravishda

qo‘llaymiz. Shuning o‘ziyoq undagi semantik xususiyatning matn bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.). 2. Ko‘makchi fe‘l vazifasida kelmay, o‘zi mustaqil qo‘llanadi (Endi Elobodda yuribdi.), lekin mustaqil so‘zlik holatidagi ma‘nosi o‘zgargan bo‘ladi. Bu ikki tipdagi qo‘llanishning ham zamon kategoriyasi bilan bog‘lanish va shu ma‘noda xilma xil bo‘la olishi aniq. “Hozirgi zamon o‘zbek tili” (1957) kitobining o‘tgan zamon fe‘llariga bag‘ishlangan qismida yuqoridagi (yurmoq, o‘tirmoq, turmoq, yotmoq) kabi formalarning matnga qarab o‘tgan yoki hozirgi zamon ma‘nosini anglatishini farqlash lozimligi ta‘kidlanadi. □ Bunday fe‘l formalarini ham o‘tgan, ham hozirgi zamon ma‘nosida kela olishiga boshqa mualliflarning asarlarida ham e‘tibor beriladi. □ Bu asarlarda yotmoq, turmoq, yugurmoq, o‘tirmoq fe‘l formalrining harakat bildirganda o‘tgan zamon eshitilganlik ma‘nosini ifodalashi, holat bildirganda esa aniq hozirgi zamon anglatishi aytiladi. Bu fe‘llarning ko‘chma qo‘llanishi hali qaralmagan. Misol tariqasida yotmoq fe‘lining matnga qarab , ham o‘tilgan zamoni ham hozirgi zamoni ifodalash uchun qo‘llanganligini ko‘rib o‘tamiz: 1. Shu kecha yigit cholning kulbasida yotibdi. (ertakdan). 2. U derazadan hovliga qarab yotibdi. (SH.Xolmirzayev).

Bu fe‘l formalrining harakat bildirganda o‘tgan zamon eshitilganlik ma‘nosini ifodalashi holat bildirganda esa aniq hozirgi zamoni anglatishi ta‘kidlanadi.

Mazkur formalarnin har ikki zamon ma‘nosi uchun ishlatilishi ularning qo‘llanish shart sharoiti va ma‘naviy xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish zarurligi ko‘rsatadi. Bu holat uslubiy xususiyat bilan ham bog‘liq : Bu fe‘l formalarining o‘tgan zamon eshitilganlik ma‘nosi og‘zaki nutq uchun xarakterli bo‘lib, badiiy adabiyotda uchramaydi. Ularning turli xususiyatlarini aniqlash uchun to‘g‘riva ko‘chma qo‘llash holatlarini farqlash zarur bo‘ladi. Badiiy asarlardan , gazeta jurnallardan yig‘ilgan materiallar mazkur zamon formalarini o‘tgan zamon ma‘nosi uchun ko‘chma qo‘llanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ularning o‘tgan zamonga

ko‘chirilganligi , albatta, matn orqali ma’lum bo‘ladi, ko‘chma ma’nosi asl ma’nosi bilan uzviy bog‘lanib, shunga asosan aniqlanadi. Demak bunda omonimlik holatini emas balki, ma’lum ma’nodagi ko‘p ma’nolikka ko‘ramiz. Bu formalar ifodani kuchaytirish, tezkorlik jonlikartinalarni yaratish umuman badiiylikni oshirish maqsadida ko‘chiriladi. □ So‘zlovchi harakatining kuzatuvchisi sifatida o‘tgan zamondagi voqealarni hozirgi zamon holat fe’li formasi orqali ko‘chiriladi. Nutq paytidan oldin bo‘lgan harakatning vaqt jihatidan oldin – keyinligiga qarab, bu zamon formasi ham o‘tgan zamonning turli tiplari uchun ko‘chiriladi: Bir pasdan keyin Farmonqul uning ketidan xotin qizini yetaklab kirdi. U mendan qochmadi. Hammamiz o‘tiribmiz, qani endi birontamizdan sado chiqsa. (A.Qahhor).

Bu fe’l formalari yaqin o‘tgan zamon formasi o‘rnida ko‘chma qo‘llanadi. Bunda yaqin o‘tgan zamon fe’li formasi bilan hozirgi zamon fe’li aralash keltiriladi. Masalan: Ha, Toshkentda , kasalxonada yotibman. Bas yotganim! Nima qilib yuribsan bemahalda. Nega uxlamading? (A.Qahhor). shunda avzxon kelib qoldi. Beklar taslim bo‘lganday jim turishibdi. (Ergash Jumanbulbul o‘g‘li).

Bu fe’l formalari uzoq o‘tgan zamon formasi uchun ko‘chma qo‘llangan bo‘lishi ham mumkin . nutq paytidan oldin bo‘lib o‘tgan , lekin kutilmagan harakatlarning ifodasi uchun hozirgi zamonning bu turlari o‘tgan zamonga ko‘chiriladi: Qunduzoyim qo‘shinning ichidan chiqib ketdi. Avazxonga yetdi. Otidan tushib xabar olsa, o‘zini bilmay yotibdi. (Ergash Jumanbulbul o‘g‘li). Misolda shoir paytning aniq ifodasi uchun – yotibdi hozirgi zamon formasini ishlatadi. Bu formaning uzoq o‘tgan zamon formasi bilan almashtirsa ham bo‘ladi. Lekin “kutilmaganlik” ma’nosida ancha o‘zgarish bo‘ladi. Quyidagi misollarda ham xuddi shunday ma’no ifodalanadi.

“Qalin qor yoqqan kun edi . men derazaning ro‘parasida mana shu holda yotibman. Akramjon paypog‘ini yamayotgan edi, shekilli” (Said Ahmad).

Hozirgi zamonning bu turi tarixiy o'tgan zamon o'rnida qo'llanadi. Bunday ko'chirish ko'proq taxmin, faraz kabi ma'nolarni ifoda etishda ishlatiladi. Matnda yaqin o'tgan zamon fe'llari ham qatnashadi: Sergey xayoli bir aylanib kelar muddat kutdi. Dushman qimirlamadi. YO daraxtzordan ancha ichkari kirib ketdimi u? Yo'q unchalik vaqt o'tgani yo'q, u yaqin bir yerda pisib turibdi. (Hamid G'ulom); Dushmanning yashiringanligi ma'lum. Lekin sharpa yo'q "pisib turgandir" deb taxmin qilinadi. Shuning uchun pisib turibdi formasi ishlatilgan: Taxminning qat'iyiligi bo'rttirib beriladi.

Keyin xayoli uni Nosirjonga sudradi. U allaqachon Olmaotada o'tiribdi. Ertaga Nosirjon majlisga qatnashadi (Ma'rifat).

Aniq hozirgi zamonning bu formasi o'tgan zamon davom fe'li o'rnida qo'llana oladi. Muallif tomonidan berilayotgan manzaraning jonli ko'rinishi o'quvchi ko'z oldiga keltiriladi. Matnda o'tgan zamon davom fe'llariham bo'ladi: Men oyim tikkan jiyaklarni ko'tarib , eski jo'vadagi bozor rastalarida kezib yuribman. Ayyor va shum Turg'un ham yonimda borardi. (Oybek).

Ba'zi harakatlarning davomlilik ma'nosini berishda hozirgi kelasi zamon formalari yuqoridagi tur bilan aralash keltiriladi. Voqealarning zanjiri tasvirlanadi: shunday qilib, bazo'r uyquga ketdim. Bir vaqt cho'chib uyg'ondim-da, sapchib o'rnimdan turdim. Oy xira, osmon yorishganroq, unda – bunda bulutlar yuribdi. Oyim ivirsib yurardi. (Oybek). Uy ichi zax bo'yra ustida o'n- o'nbir yashar bola yotibdi. Men unga yaqinlashdim. Bolaning yuzi so'lg'in, so'niq yuzlari devorga tikilgan, faqat yupqa , cho'chchaygan ko'kimtir lablaridagina hayot sezilardi. Lablari dam- badam uchib turibdi. Alahsiraydi. (Saida Azimova).

Yana shunday fe'l formalari ham mavjudki bular formal jihatdan o'tgan zamon eshitilganlik fe'llariga yaqin turadi. Lekin ma'nosiga ko'ra nutq paytiga tegishli bo'ladi. Bunday fe'llar o'tgan zamon uchun ko'chirib qo'llanadi: Qayerda

o'tirasizlar: yana uyga taklif qilmang yasatib qo'yibman-a. (Oybek): Yasatib qo'yibman formasi ma'nosi uchun qo'llanmoqda.(uy yasatilganicha ).



### **1.3. Hozirgi - kelasi zamon fe'l formalarining o'tgan zamon ma'nosida qo'llanishi.**

Hozirgi – kelasi zamon formalarining o'tgan zamonga ko'chishi haqida ayrim adabiyotlarda. Ma'lumotlar berilgan: A.N.Kanonov "O'zbek tili grammatikasi" kitobida bu haqda to'xtamagan bo'lsa ham lekin shu kitobning keyingi nashrida□ zamon ko'chishi haqida fikr yuritmaydi. O'zbek tiliga oid ayrim ishlardagi fikrlar esa shu haqda oldin aytilganlaridan farq qilmaydi.

Hozirgi kelasi zamon fe'l formalarining ko'chirilishi badiiy adabiyotgagina tegishli bo'lmay, balki ilmiy asarlar, maqolalar, gazeta sahifalari va ba'zi yozishmalarda, shuningdek idora qog'ozlarida uchrashi kerak. Ayrim hollarda voqealar faqat hozirgi kelasi zamon formolari orqali beriladi. matnda voqeaning o'tgan zamonga tegishliligi bilinib turadi: uchqur otlar tuyog'idan chiqqan sado tinmasdanoq ikkinchi tarafdin chorchinorga Komil Rustamov boshliq qizil suvoriylarning kichik otryadi yetib keladi.komissar uzangidan oyoq uzar yekan buyruq beradi (Sarvar Azimov) Navoiy Gulining so'zlaridan qattiq ta'sirlanadi. Ammo ta'sirlanganini yashirishga kirishib Gulini ovuta boshlaydi (Uyg'un). Hozirgi kelasi zamon formolari tarixiy o'tgan zamon ma'nosi uchun qo'llanadi. Nutq paytidan ancha oldin bajarilgan voqealarning bayoni hozirgi kelasi zamon formasi orqali beriladi. 1872-yil. Balqar isyonkorlari turk zolimlariga qarshi qo'zg'olonga tayyorlanadilar. ammo bir xoin sirni ochib qo'yadi. oqshom. qishloq lovullab yonmoqda, borliq alanga quchog'ida. qishloq yonida oqayotgan ariqning suvlari qon yallig'idan qizarib ketgan. samodan yangi oy bilan bir dona yulduz bu mash'um manzaradan yuzlarini timdalayotgan (Jumaniyoz Jabborov)

Hozirgi kelasi zamon fe'l formolari kelasi zamon ma'nosi uchun ko'chiriladi. Hozirgi zamon fe'li doirasining kengligi bu zamon formasining kelasi zamon ma'nosi o'rnida ham qo'llanishiga sabab bo'ladi. o'zbek tili grammatikalarida hozirgi kelasi zamon fe'l formalarining ko'chma qo'llanishi haqida deyarli bir xil fikr beriladi. ularning ma'nolari qatorida kelgusida

boʻladigan harakatni ifodalab , kelasi zamon maʼnosi oʻrnida qoʻllanishi mumkinligi haqida ham fikr yuritiladi . kelasi zamon ifodasi uchun aniq hozirgi zamonning koʻproq –yap , -yotir , -yotib affikslari bilan yasalgan formalari koʻchiriladi:

-Togʻa , -dedi choy quyib oʻtirgan Ummatali Rayimberdiga qarab, -Kecha ota kelgan ekanlar tinchlikmi ishqilib

-Tinchlik , yozyogʻonga chiqib keldim, ish katta boʻladigan . Bizga Naymandan yer berishyapti (S.Ahmad ) Mazkur misoldagi hozirgi zamon formasi kelgusida bajariladigan harakatni taʼkidlab, bunga ishonch maʼnosini boʻrttirib beradi. Bunday qoʻllashda , odatda kelasi zamoni bildiruvchi leksik vositalar ham boʻladi: Bu vositalar payt bildiruvchi soʻz voqeaning kelasi zamonga tegishli ekanligini koʻrsatib turadi. Koʻchma qoʻllangan hozirgi zamon formasi voqeani xuddi nutq jarayonida boʻlayotgandek tasavvur etish imkonini beradi. Xuddi hozirgi zamonda shubhasiz bajariladigan harakatlardек tuyuladi. Bunday koʻchma qoʻllangan hozirgi zamon formalari oʻz formasi va maʼnosini oʻzgartirmagan holda kelasi zamoni ifodalovchi matnda qoʻllanadi: Ertadan nafaqaga chiqaman. Endi har kuni osh qilib beraman. (Oʻ.Hoshimov).

Kelasi zamonga koʻchirilgan feʼl formalari orqali ham nutqni jonli taʼsirli ifodali qilib berish maqsad qilib qoʻyiladi. Hozirgi zamon feʼlining boy maʼno xususiyati bu zamon formasining ham oʻtgan, ham kelasi zamon oʻrnida qoʻllanish imkonini beradi. Matnda leksik elementlar boʻlmaganda, kelasi zamon tushunchasi sintaktik qurilmaning oʻzidan bilinib turadi:- Yigʻidan foyda chiqmaydi, qizim, professor Sohibovga xabar qil...

-Bezovta qilgim yoʻq.

-E, buyoqda butun boshliq odam oʻlayotibdi-yu, bezovtaligi bormi? Chaqir! (S.Zunnunova).

Hozirgi zamon fe'l formalari hammasi ham aynan shu xususiyatga ega emas. Bunday fe'llar leksik ma'nosi bilan uzoq muddatli harakatlarni ifodalaydi. Shuningdek kishining kechinmalarini, turli ruhiy holatlarini ifodalovchi fe'l formalari ham kelasi zamonni bildiruvchi elementlar bilan berilmaydi. Demak, kelasi zamon uchun qo'llangan hozirgi zamon formalari bajarilishi aniq bo'lgan, qat'iy qaror qilingan harakatlarni xuddi nutq jarayonida bo'layotgandek tasvirlash uchun keltiriladi. Bajarilishiga faraz, shubha qilingan kutilmagan voqealarning tasvirlanishida ham aniq hozirgi zamon fe'llarining kelasi zamonga ko'chirilishini uchratish mumkin. Bunday matnlarda qat'iy qaror qilinganlik ma'nosi kuchli bo'ladi:

-Askarlikka ketayotganmishsan deb eshitdim...

- Ha shunaqa bo'lib qoldi.

-Qayoqqa?

- Ketaman.

- Qayoqqa ketasan? Hali qochayapsanmi? (Said Ahmad).

Umumzamon fe'llari ham hozirgi kelasi zamon formalari doirasiga kiradi. Lekin chegarasiz- ma'lum vaqt bilan chegaralanmaganligidan ma'no doirasi hozirgi kelasi zamonga nisbatan teng: Har bir harakat ham yo ma'lum aniq nutq paytiga tegishli bo'lishi yoki ma'lum davrda predmet yoki shaxslarning xususiyatiga aylanib qolgan belgi bo'lishi mumkin.□: Suv – dengiz uzluksiz bug'lanadi, havoga ko'tariladi, katta bir qismi esa yerga singgadi. (Jonrid Abdullaxonov).

Misollar shuni ko'rsatadiki hozirgi kelasi zamon doirasidagi umumzamon formalari ham uzoq davomli harakatlarni ifodalaydi, ham doimiy, obektiv qonuniy harakatlarni ifodalaydi. (Baliq suvda suzadi.). Shuningdek, bu tipdagi fe'llar maqollarda shunday xususiyatga ega bo'ladi. Bularning gumon ma'nosi bilan

bog‘lanishi keyinroq tug‘ilgan hodisadir: Zar qadriga zargar yetar. (yetar- yetadi.). muhabbat chiroy tanlamas, uyqu o‘rin tanlamas (tanlar- tanlamas).

Anglashiladiki hozirgi zamon fe‘lining birinchi turi aniq hozirgi zamon fe‘llari kelasi zamon ma‘nosi uchun ko‘chma qo‘llanadi. Ikkinchi turi esa kelasi zamon ma‘nosini emas, umumzamon ma‘nosini ifoda etadi.

O‘tgan zamon formalarining ko‘chirilishi ikki xil: Hozirgi zamon fe‘llari ma‘nosi uchun qo‘llanishi va kelasi zamon fe‘llari ma‘nosi uchun qo‘llanishi. Bunday qo‘llanishning aniq ko‘rinishlari har ikki tomonning ham (bir tomondan o‘tgan zamon, ikkinchi tomondan hozirgi kelasi zamonlar ) ma‘lum turlarini ko‘zda tutadi.

O‘tgan zamon formalari o‘zbek tilida boshqa zamonlarga qaraganda kamroq ko‘chadi. O‘tgan zamon formasining ko‘chirilishi jonli so‘zlashuvda , dialog va monologlarda, badiiy asar tilida ko‘p uchraydi. Zamon formasini ko‘chirish uslub talabiga qarab bo‘ladi. Ba‘zan shunday hollar ham uchraydiki, umumiy fikrning berilishi, asarning janr xususiyati zamon formasini ko‘chirishning zarur ekanligini ko‘rsatadi. Demak, ko‘chma forma o‘rniga o‘z, asl ma‘nosidagi zamon formasini qo‘shish hamma vaqt to‘g‘ri kelavermaydi. Ba‘zi tasvirlarda tabiat manzaralarining jonli ko‘rinishini zamon formasini ko‘chirmasdan berib bo‘lmaydi ham.

“Aniq o‘tgan zamon fe‘l formalari ba‘zan kelasi zamon ma‘nosini ifodalaydi, bu usul nutqni ifodali qilish uchun qo‘llanadi, ba‘zan taxmin faraz kabi ma‘nolarni ifodalash uchun ham aniq o‘tgan zamon fe‘llari shu tarzda ishlatiladi” – deydi G‘ulomov□

#### **1.4.O'tgan zamon fe'l formalarining boshqa zamonga ko'chishi**

O'tgan zamon fe'l formalari , haqiqatdan ham , juda kam o'rinlardagina boshqa zamonga ko'chishi mumkin. To'plagan doimiy materiallarimiz o'zbek tilida o'tgan zamon fe'l formalarining ko'chish o'rinlari bir necha xil ekanligini ko'rsatadi.

Doimiy materiallar asosida o'tgan zamon formalarining quyidagicha ko'chish turlari mavjudligini belgiladik:

1.Yaqin o'tgan zamon fe'l formalari. Umuman olganda , voqea va hodisalarning jonli tasviri uchun aniq hozirgi zamon ma'nosida ishlatilishi mumkin (bordim fe'li har qanday katta matnda ham o'tgan zamoni bildirib, hozirgi zamon uchun qo'llanmaydi).

Lekin folklor asarlarda bordim tipidagi fe'llarni hozirgi zamon ma'nosi uchun qo'llash ham uchraydi:

Urush talab chiqqan Avazxon,

Bir yurtlarga safar qilding begumon.

Rost aytgin, jon bolam qayga borasan (Fozil Yo'ldosh)

2. O'tgan zamon eshitilganlik fe'llari orqali hozirgi zamon ma'nosi ifodalanganda , o'tgan zamonda boshlangan davom etib turgan harakatlar haqida fikr yuritiladi. Masalan,- Bizning sexda har kuni bir yangilik o'ylab topishadi. Lekin bu haqda maqtanayotganim yo'q-ku? Sen bo'lsa nuqul o'sha...

-Ilg'orlaringni maqtaysan xolos degin.

-Nima maqtasa arzimaptimi? Axir, sen bilan biz shunday kishilarimiz bilan faxrlanishimiz kerak.(Jonrid Abdullaxonov).

3. O'tgan zamon fe'li formasi hozirgi kelasi zamon ma'nosi o'rnida qo'llanadi. O'tgan zamon fe'lining bu formasi orqali ifodalangan harakatning natijasi hamma vaqt ham nutq paytiga to'g'ri kelavermaydi. Masalan, demak, ilgari ham xuddi shunday deb o'ylagan. Nihoyat keyin shartni ko'ndalang qo'ygan. Bunda tabiat manzaralarining nutq paytidagi holatlarini bayon etish ko'proq uchraydi. Tabiat manzaralarini o'z ko'zi bilan ko'gan so'zlovchi keyinroq ularni ko'z oldiga kelirib, obrazli ifodalashga harakat qiladi, bu bilan tinglovchining ham shu hodisalarnixuddi o'zi kabi tasavvur qilishiga erishmoqchi bo'ladi. Masalan, Sofiya azamat tog'lar bilan qurshalgan katta schayhonlikka joylashgan. (Jumaniyoz Jabborov).

Hozirgi zamon fe'llari ayrim matnlarda tarixiy o'tgan zamon fe'llari bilan bir qatorda qo'llaniladi. Bu fe'llarning o'zi ham voqeaning nutq paytiga tegishli ekanligini ko'rsatib turadi: Dengiz va osmonning ahyon- ahyoniga lola bayroqli uchqur teplaxod yaqinlashayotgan sohilning bag'rida qad ko'targan shahar peshtoqlariga qip qizil gilamni to'shab kun botmoqda. Tabiatning mehr va nafosatga to'la manzarasi barchani kema sahnini to'ldirgan sayyohlarni tamom maftun aylagan. (S.Azimov).

Misollarda tarixiy o'tgan zamon formasi bilan birga hozirgi zamon fe'llarning bir necha turini uchratamiz. Bu hozirgi zamon fe'llari orqali matnning hozirgi zamon ma'nosi yanada yaqqolroq ochiladi. Shaxs predmetlarning xususiyatini, turg'un belgilarini ko'rsatish uchun ham tarixiy o'tgan zamon fe'l formasi ishlatiladi. O'tgan zamon fe'lining bu formasi hozirgi zamonga tegishli voqealarni ifodalash bilan o'z asl ma'nosini fo'qotmaydi. Faqat ma'lum matndagina hozirgi zamoni ifodalaydi. Asosan esa o'tgan zamon voqealarini bildiradi chunki harakatning boshlanish nuqtasi odatda nutq paytidan oldingi vaqtga borib taqaladi. Shuning uchun fe'lining bu formasi bir vaqtning o'zida ham hozirgi zamoni ham o'tgan zamoni ifodalashi mumkinligini unutmasligi kerak.

Bunday asarlarda fe'lining boshqa zamon formalari qatori bu turlardan ham keng foydalaniladi.

O'tgan zamon fe'l formalarining kelasi zamon ma'nosi uchun ko'chiilish mavzui ru tili grammatikasiga oid adabiyotlarda chuqur ilmiy asosda yoritilgan. O'zbek tili materiallari o'tgan zamon fe'llarining bir qancha turi kelasi zamon ma'nosi uchun ishlatila olish mumkinligini ko'rsatadi. Bu ko'chishning ko'rinishlari quyidagilardan iborat:

1. Yaqin o'tgan zamon fe'l formalarining aniq kelasi zamon ma'nosi uchun qo'llanishi: aniq kelasi zamon fe'llari orqali, odatda kelgusida bajarilishi aniq bo'lgan harakatma'nosi ifodalanadi. Bunday ma'no yaqin o'tgan zamon fe'l formalari orqali berilishi mumkin. Bunda kelgusida bajariladigan ishga ishonch, qat'iy qaror qilinganlik ma'nosi ifodalanadi. Masalan, Kolxoz omboridan chiqqan narsa o'zingizning hamyoningizdan chiqadi. Yerni bir marta vaqtida sug'ormadingizmi, bas, omborga tushadigan hosilning bir ulushi kamaydi deyavering .Avazxon o'g'li bilan qizini kokili qirmizi qonga belangan holda aymovlar orasida ko'rdi. (Ergash Jumanbulbul o'g'li). Misollardagi fe'lla orqali kelgusida aniq bajarilishi mo'ljallangan harakat ifodalangan.

Ba'zan o'tgan zamonning bu formasidan kelgusida shunday qilinmaydigan, lekin shaxslarning ichki kechinmalarining ifodasi uchun shunday deb faraz qilinadigan harakatlarni berish uchun ham foydalaniladi. Bunday paytda ham yaqin o'tgan zamon formasi ko'chma ma'noda ishlatiladi. Bu holatlar folklor asarlarida ko'p uchraydi:

Qutulmadim qayg'u, kulfat, alamdand,

Tiriklay ayrildim ikki bolamdan

Jonim chiqib ketdi mening tanamdan

Tag'in qaytib ko'rarmanni qo'zimni. (Ergash Jumanbulbul o'g'li).

Bu forma soʻzlovchining oʻz fikriga boʻlgan munosabatini ifodalash uchun ham koʻchirib ishlatiladi. Bunda soʻzlovchi oʻz fikrining qanchalik toʻgʻri ekanligini tinglovchi orqali tasdiqlamoqchi boʻladi. Masalan, bugun Xayrinishaning oʻzi boshlab bersin! Nima deding, Muhammad Aminxoʻja! Bu pismiqlik sheʼr yozadi-yu, bizdan yashiradi! (Sobir Abdulla)

Bunday bexijolat betashvish mehmonlar har kuni kelsa ham mayli! Nima dedingiz, janob muboshir. (Sobir Abdulla )

Misollardan koʻrinadiki Nima dedingiz iborasi “nima deysiz” maʼnosida qoʻllanadigan turgʻun qoʻshilmaga aylangan.

2.Yaqin oʻtgan zamon formalari kelasi zamon gumon feʼllari maʼnosi uchun koʻchiriladi:

A. Yaqin oʻtgan zamon formalari kelgusida bajarilishiga qatʼiy ishonmaganlik, harakatning bajarilishiga gumon qilish maʼnolarini ifodalash uchun kelasi zamon gumon feʼllari maʼnosida ishlatiladi:

Nima qildik endi? Bi yoqdan oʻz dahmazalarimiz ham togʻ- togʻ oshib yotibdi. (Oybek)

-Juda qattiq soʻraydi deyishyapti, qalay boʻlarkan?

-oʻtsak , oʻttik , oʻtmasak yanagi yilga kelarmizda. (Rustam Rahmonov)

B. Yaqin oʻtgan zamon feʼl formalari ishning bajarilishida taxmin, faraz kabi maʼnolarni ifodalash uchun ham, kelasi zamon maʼnosi uchun koʻchiriladi. Bunday gaplarning mazmunidan shart maʼnosi sezilib turadi. Matndagi feʼllar orqali yuzaga kelmagan, faqat qilinayotgan harakat va voqealar ifodalanadi. Bunday birikmalar kuchli taffuz bilan aytiladi.

Bunday hollarda koʻchma ishlatiladigan feʼllar shart feʼllari bilan almashtirilsa, asosiy mazmunga xalal bermaydi. Masalan, faraz qilaylik: Tojixon



Qodirni emas, seni sevadi. Ammo seni o'ldi deb o'ylab Qodirga tegdi. Keyin sening tiikligingni eshitib qoldilar. Unda nima bo'ladi? Unda ularning hayoti umrbod pushaymon bo'lib o'tmaydimi? (Uyg'un ). Bunday konstruksiyalarda boshida faraz qilaylik ko'chma fe'lli iboralardan keyin unda kabi elementlar qo'llanadi.

V. Yaqin o'tgan zamon formalari kelasi zamon ma'nosi uchun ko'chirilganda, ishning bajarilishiga ishonmaslik, ikkilanish kabi ma'nolar bilan bog'lanish ham mumkin. Misollar: ha , balli , men xuddi shu gapni aytmoqchi edim. Bordi-yu biz alla bo'lib tushdik, unda nima bo'ladi. (Uyg'un). Qoraxatga nima yozilgan bo'lsa, endi uni o'zimiz bajo keltirishga to'g'ri keladi! Xo'sh endi uning xarjini qayoqdan topdik? (Said Ahmad).

Shuningdek o'tgan zamon eshitilganlik fe'li formasi hozirgi kelasi zamon ma'nosi uchun qo'llanganda hamma vaqt ham so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan yoki so'zlovchiga keyin ayon bo'lgan harakatgina ifodalanib qolmaydi. Uning boshqa xususiyatlari ham bor. Masalan boshqa zamon ma'nosi uchun ham qo'llanganda bu forma orqali so'zlovchiga ma'lum bo'lgan, so'zlovchining ko'zi oldida sodir bo'layotgan aniq harakatlar juda kam o'rinlarda bo'lsa ham uchrab turadi. Bu fe'l formalari bir matnda hozirgi zamon ma'nosi uchun qo'llansa ikkinchi bir joyda xuddi shu formada o'tgan zamon ma'nosi ifodalanadi. Masalan, kampiri tushmagur mashinaga tushib olib juda kerilib ketdi. To'g'rida taksida yurish hamma kampirlarga ham nasib qilaveibdimi? (Farhod Musajonov); Nasib qilaveribdimi formasidan anglashilgan ma'no hozirgi zamonga tegishlidir. Bunday formalar orqali so'zlovchi uchun aniq bo'lgan harakat hozirgi kelasi zamon ma'nosini bildiradi. Quyidagi misollardagi fe'llar formalari esa o'tgan zamonga tegishli harakatlarni ifodalaydi. (maxsus ottenka bilan): ...o'sha shafqatsiz Chorshanbada men uydan barvaqt chiqdim maktabda majlis bo'lishi kerak edi. xayolga sho'ng'ib kelaveribman. Toshko'prikdan o'tganimda qarshimda bir qiz paydo bo'ldi. (Gazetadan) Suhbatimiz borgan sari qiziq qizning chehrasi ancha

ochildi. Gulxan taftida isinib o'tirib, allamahalgacha suhbatlashibmiz.(Uchqun Nazarov).

1. O'tgan zamon eshitilganlik fe'li formasi aniq kelasi zamon ma'nosi uchun qo'llanadi:

A. Bunday ko'chma qo'llangan fe'l mazmunan hozirgi kelasi zamonga yaqin bo'ladi. Misollar: ovqatga bolalap topib kelgan har turli narsa tushganligi sababli buning oti ham yo'q. Ammo dunyoda maqtalغان barcha shirin ovqatlarning ta'mi bor. Bundan kimki totimabdi- dunyoga kelmabdi! Kecha ko'mgan edik bugun pishdi. (Said Ahmad)

2.Harakatning qat'iy ishonch ma'nosini bildirish uchun qo'llanadi. Misollar: Ja'far og'a, hadeb xunob bo'lavermang, men sizga achinaman. Menga katta mis barkash topib bering, holvalarni unga g'alati qilib teraman-u, boshimga qo'yib, ko'chama-ko'cha "o'olva keldi!" deb baqiraman. Mana qarabsizki, kunda bir barkash holva, bir barkash mulla jiring bhlib kelibdi-da... Xo'sh, nima dedilar... (Abdulla Hakimov).

Bunday ko'chirish, ayniqsa, personaj tilida keng qo'llaniladi. Ko'chma qo'llangan fe'llar mazmunan hozirgi – kelasi zamonga yaqindek ko'rinsa-da, lekin matndagi voqealarning bajarilishi nutq paytiga borib taqalmaydi. Masalan: -Ha, Oltinsoyga, albatta, borasiz. O'zim kelib olib ketaman. Oltinsoyni ko'rmabsan, dunyoga kelmabsan. (Uyg'un).

3. Misollardagi buni ko'rmabsan, dunyoga kelmabsan kabi qo'llashlar umumzamon ma'nosiga juda yaqin turadi. Rahmatni keyin aytasiz. Uch oydan keyin... Uch oy yaxshi muxlat. Redaksiyaga o'tadigan praktikangiz davomida ham ishga o'rganasiz, ham odamlarni. Qarabsizki diplom ishingiz ham tayyor bo'lib qolibdi. Kelishdikmi? (S.Anorboyev).

3.Palov qani ?

- Ishtahangiz qayralganmi?

- Asad pishirgan palovni kim yemabdi, dunyoga kelmabdi. (Nazir Safarov).

IV. tarixiy o'tgan zamon fe'lli formalari aniq kelasi zamon ma'nosi uchun ko'chiriladi.

O'tgan zamonning bu turi kelasi zamonga ko'chirilganda, O'tgan zamon fe'llari bo'l fe'li bilan birga ishlatiladi. Bu formalar anih voqeani emas, taxmin qilingan, mo'ljallangan voqealarni berish uchun kelasi zamonga ko'chirib qo'llaniladi. Bunda shaxsning istagi, qarori o'tgan zamon fe'li orqali beriladi. Bunday qo'llashlarda modallik alohida rol o'ynaydi. Masalan: -U kishi bilan qayerga uchrashsak bo'ladi? – Shu yerga yaqin bir bog'da u kishining uzatilishi marosimi o'tmoqda. Xo'p desalaring, boshlab berganim bo'lsin. (Sobir Abdulla). Siz oshni Qo'qondagi hujrangizda qilib berasiz, eshon aka! Bu yerning samovarchilari juda shinavanda kishilar! Og'zimdan chiqmasdan choyxona egasi xizmatni bajarishga kirishadi, bir soatdan keyin osh yeganimiz bo'lsin. (Sobir Abdulla).

Bunday birikmalarda bo'l fe'lidan oldingi komponent:

- a) –gan affiksi orqali hosil bo'lgan sifatdoshning egalik affiksi olgan formasini ko'rsatadi, bo'l fe'li buyruq mayli formasida bo'ladi. (III-shaxs)
- b) O'sha sifatdosh kelasi zamon formasida kelganda, (Bu forma umumzamonni ham anglataveradi), bo'l, fe'li odatda kelasi zamon uchun qo'llangan yaqin o'tgan zamon formasida bo'ladi.

Yuqoridagi kabi birikmalardagi ko'chirishning uslub talabiga muvofiqligi, mant bilan bog'liqligi aniq. Bunday talablar bo'lmasa, zamon formasi o'z ma'nosida qo'llanaveradi. Shuning uchun o'am ba'zi o'tgan zamon formalarda (masalan, uzoq o'tgan zamon formasi, o'tgan zamon hikoya formasi) ko'chish xususiyatini ko'rmaymiz. Chunki ko'chirish tezlik bilan bog'liq bo'lib, bunda so'zlovchining maqsadi, rejalari bayon etiladi.

## **II BOB: Kelasi zamon fe'l formalarining ko'chma qo'llanilishi.**

Kelasi zamon fe'l formasi hozirgi zamon bilan hambog'langan bo'ladi: ba'zi hozirgi zamon fe'llarining ma'no doirasi keng bo'lib, u kelasi zamon doirasiga ham kirib boradi. Ayrim formalarning o'rniga qarab, hozirgi zamon uchun ham, kelasi zamon uchun ham qo'llanishi(hozirgi-kelasi: o'qiyman) ularning hozirgi zamon formalari bilan aloqador ekanini ko'rsatadi. O'zbek tiliga doir gramatik asarlarda kelasi zamon fe'l formasining boshqa zamon uchun qo'llanishi haqida fikr yuritilmaydi, hisob(maktab gramatikasi kitobidaborar formasidagi fe'lning poetik asarlarda hozirgi zamon uchun ham qo'llanib kelishi haqida gapirilgan xolos). Doimiy materiallar garchi chegaralangan holda bo'lsa ham, bu zamon formalarining ko'chma qo'llana olishini ko'rsatadi. Bunda felning leksik xususiyati katta rol o'ynaydi.

### **2.1. Kelasi zamon fe'l formalari hozirgi zamon ma'nosida.**

Kelasi zamon fe'l formalari hozirgi zamon fe'llari ma'nosi uchun ko'chma qo'llana oladi. Bunda u umumzamon ma'nosini ifodalaydi va u shaxs-predmetlarning belgiga aylanib ketgan holat va harakatlarning ifodasi uchun ishlatiladi. Ko'pincha maqol va hikmatli so'zlarda hozirgi zamon ma'nosi uchun ko'chiriladi. Maqol, matal va shu kabilarda hayot tajribalaridan kelib chiqqan xulosalar bilan bayon qilinadi, demak, bularning mazmuni bir zamon bilan chegaralanmaydi, har uch zamonga doir bo'ladi. Anglashiladiki, bunday hollarda umumzamon ma'nosini anglatuvchi fe'l formalari juda qo'l keladi: bu formaning ma'nosi shu matnga mos keladi(Bunday hollarda odatda, shaxs ma'nosi ham umumlashgan bo'ladi): It hurar, karvon o'tar. Dangasaga ish buyursang, senga aql o'rgatadi. Egasini siylagan itiga suyak tashlaydi.

Kelasi zamon fe'l formalari nuth paytida bajarilayotgan harakat va holatni ifodalash uchun ham hozirgi zamon ma'nosida keladi. Misollar: gap bunda emas; ko'katlar yana ko'payadi. Men shunga quvonamanki, ko'saklarning ko'pi besh xonali.

(Oybek). Ha, barakalla – dedi keksa ishchm va Nabigulga qaradi. – Xo‘sh sen nima izlaysan? (Abdulla Qahhor).

Bunday hollarda ko‘chish haqida gapirishning ma’lum izoh bilan bog‘liq ekanligi – sharti aniq; ishlaydi tipidagi fe‘llar (bular asosan kelasi zamoni bildiradi), o‘rni bilan hozirgi zamon ma’nosida ham keladi: Kelasi-hozirgi fe‘li: boraman fe‘li kelasi zamon, uning hozirgi zamon fe‘li fahat matnda. □ Yana quyidagi misollarni qiyoslang:

-Hasanjon kerak edi.

-O‘zlari kim bo‘ladilar?..

-Nima ishingiz bor edi? (Nazir Safarov).

Tun . Soat rosa uch. Shamol uvillaydi. Qorlarni uchirib o‘ynaydi. Hatto daraxtlar haybatlt ko‘rinadi tunda. Kim biladi: Daraxtning orqasida biror kimsa “ovi” ni poylayaptimikin? (Adham Rahmat).

Kelasi zamon fe‘l formalari tez tez almashadigan harakatlarni ifodalashda ham hozirgi zamon ma’nosi uchun qo‘llanadi. Bu ko‘proq tabiat manzaralarini tasvirlashda uchraydi. Misollar: Kechkuz izg‘irini shahar ko‘chalarida yelib boradi, yupun kiyingan kishilarni dildiratib, lablarini gezartiradi. Shunday paytda bir chol qo‘ltig‘ida bir bog‘ tarasha, to‘n barini boshiga yopib,... o‘z kulbasi tomon shoshilib borardi. (Sobir Abdulla). Shu o‘rinda Plevyan shahrining yonboshida ko‘rganimiz “Qoyalik” deb atalmish ajoyib manzaralarni yana ko‘z o‘ngimda gavdalantiraman. Ayniqsa , g‘or ichidagi ta‘tilxona va dam olish bog‘lari zo‘r taassurot qoldirdi. (Jumaniyoz Jabborov).

Kelasi zamon va hozirgi zamon formalarining yaqinligi (boraman) ularning ko‘chish hodisasida ham yaqinlik borligini ko‘rsatadi. Masalan: kecha zo‘r tantana bo‘ldi: Rais majlisni ochiq deb e‘lon qiladi... hamma o‘z o‘rnidan turadi. Fe‘llarninngg ishlatilishi (o‘tgan hodisaning jonli tasviri uchun) hozirgi zamonning o‘tgan zamon uchun ko‘chirilishi deb izohlanganidek kelasi zamonning ko‘chma qo‘llanishi sifatida

izohlanishi ham mumkin. Buni kelasi zamonning hozirgi zamon uchun ko‘chirilishida ham ko‘ramiz. Bunday qo‘llanishlarning grammatik omonimiya hodisa bilan bog‘lanishi mumkin. Kelasi zamon fe‘l formasining hozirgi zamon uchun qo‘llanishi folklor asarlarda ham ko‘p uchraydi.

Ostimga minganim – tulporim bordi.  
Ov bilan tarqatdim g‘amni g‘ubordi  
Kech huqtonda kelib bunda yotaman.  
Erta – mertam ovga chiqib ketaman.  
 (“Bahrom va Gulandom”)

Zangorning elidan ketamiz bizlar  
Girdimdan aylangan ko‘p sarvinozlar  
Rozi bo‘ling endi ketib boraman,  
Omon bo‘l ko‘rguncha , sarvinoz qizlar.  
 (“Yulduz bilan Qunduz”)

2. Kelasi zamon fe‘l formasi aniq hozirgi zamon ma‘nosi uchun qo‘llanadi. Voqealarning hozirgi zamonga tegishli ekanligi shu ko‘chma qo‘llangan fe‘l formasi orqali o‘quvchi ko‘zi oldida yaqqol gavdalantiriladi. Misollar:

-Mendan nima uchun yashirindingiz?  
-Changinigiz libosimga, dimog‘imga urmasin deb  
-Bu bilan nima demoqchi bo‘lasiz? (sobir Abdulla)  
-Hoy kim? Ko‘zimga issiq ko‘rinasiz, Sobirjonmisan?  
(Shukur Sa‘dulla )

Bunday qo‘llanishlar ko‘pincha jonli so‘zlashuv nutqi uchun xarakterli bo‘ladi: Anavini qarang, goh u yoqqa o‘tadi, goh bu yoqqa o‘tadi... xotini kasal. Uyda hamma ishni o‘zi bajaradi. (bajaryapti- bajarmoqda).

Ko‘chish hodisasining o‘zi (bunday ko‘rinishla ) bu ikki zamonning (hozirgi va kelasi zamon ) yaqinligini yana bir marta ko‘rsatadi Xullas odatdagi harakatni

bildirish , takrorlanadigan harakat, davom kabi ma'nolarni ifodalashga kelasi zamon formasi hozirgi zamon ma'nosi uchun qo'llanishi mumkin.

## 2.2. Kelasi zamon fe'l formalari o'tgan zamon ma'nosida kelishi.

Kelasi zamon fe'l formalari o'tgan zamon ma'nosi uchun ko'chiriladi. Kelasi zamon formasi o'tgan zamonda bajarilgan harakatlarning davomiyligi, takrori, birin ketin bajarilganligini ifodalash uchun, o'tgan zamon ma'nosi uchun ko'chirib qo'llanishi mumkin. o'tgan zamon voqealarini hikoya qilishda so'zlovchi kelasi zamon formalari bilan birga hozirgi zamon formalaridan ham qo'llanadi. Misollar : Bir mahal ko'zimni ochsam, g'ira – shira tong otmoqda. Yulduzlar galma gal botganday sekin- sekin so'na boradilar. Sovuqdan qotib qolibman. Asta qimirlasam, dadam payqab qoladi-da, sekin shivirlyaydi (Oybek). Ulfatlar hammasi namat ustida biri yonboshlab, biri chordona qurib joylashib oladi. (Oybek).

Yuqoridagi matnlarda kelasi zamon formalarini o'tgan zamon bilan almashtirib bo'lmaydi. Chunki : kelasi zamon formalarining o'zi yuqoridagi matnlarda qo'shimcha ma'no nozikligi bilag qatnashmoqda. Kelasi zamon formasining o'tgan zamon uchun qo'llanishi o'tganning ichida kelasi zamon tusida ham bo'ladi: bo'lib o'tgan bir necha hodisa (hammasi ham o'tgan zamon ichida) tasvirlanganda, uning dastlabkisi boshlanish nuqtasi bo'ladi.( Ma'lumki nutq payti har uch zamon planida ham olinishi mumkin). Keyingisi bunga nisbatan kelasi zamon bo'ladi. Masalan : ovchining iti quyonni ko'rib qoldi. mana tomosha! It jon –jahdi bilan quvlaydi. Quyon undan ham toyez chopadi va boshqalar<sup>1</sup>

Kelasi zamon fe'l formalarining o'tgan zamon uchun ko'chirilishi quyidagi ko'rinishlarga ega: 1. Kelasi zamon fe'llari yaqin o'tgan zamon ma'nosi uchun ko'chiriladi. Bunday hollarda matnda odatda kelasi zamon formasidagi fe'lgina bo'ladi: o'tgan zamon formalari qatnashmaydi. Umumiy mazmundan voqeaning o'tgan zamonga tegishli ekanligi ko'rinib turadi. Misollar : Hammalari otidan tushadilar. Men ham irg'ib tushishga jazm qilarkanman, oyog'imda qattiq og'riq sezamanda ikki qo'llab egarga yopishaman. (Oybek ). Qishloqlardan o'tib boramiz. Ko'ndalang sinch bilan peshayvonli qilib qurilgan shirin shinamgina uylar, hovlilar

---

<sup>1</sup> Пешковкий А.М. кўрсатилган асар , 211 бет Гвоздѐв А.Н.об одной разновидности относительного употреблениябудуѐго времени. Вопроск культ. Речи. В.3 М. 1961.



to‘lib gullab yotgan shaftolilar, olmazlarning shaxmat tartibli safi maftun etadi (Oybek).

Ayrim hollarda bu tipdagi matnlarda o‘tgan zamon formasidagi fe‘l ham qo‘llanadi: Yo‘l. Bizga yomg‘irli havo yo‘ldosh bo‘ldi. Jala va chaqmoqlar sho‘xligidan zavqlanib manzil bosamiz. (Jonrid Abdullaxonov).

Matnda hozirgi zamon formasi bilan kelasi zamon formasi – har ikkalasi-qo‘llangan bo‘lishi ham mumkin narvondan asta istamasdangina tushamanda, ko‘chada biroz aylangandan keyin Toji buvimnikiga chiqaman. O‘spirin o‘g‘li Mo‘min qorni kurab, narvondan tushib kelmoqda (Oybek).

O‘tgan zamon formasi bilan kelasi zamon o‘zaro munosabati juda murakkab bo‘lib, bu masala anchadan beri ilmiy tekshirish obekti bo‘lib keladi. Ko‘chishning bu bilan bog‘langan formasi (kelasi zamon formasining o‘tgan zamon ma‘nosi utschun ishlatiladi.). umuman, juda kam ishlangan.

Kelasi zamon formasinigng o‘tgan zamon ma‘nosida ishlatilishi har xil bo‘la oladi: o‘tganning ichidagi kelasi (U kechagi hodisalarni aytib berdi:- borasanmi? Deb so‘radi,u : “Boraman”, - dedi... ) Hozirning ichidagi kelasi va kelasining ichidagi kelasi.

Bunday qo‘llash hikoya qilishga mos keladi, voqealarning birin ketin izchil bo‘lishini ularnin o‘zaro bog‘lanishini odatdagidan ko‘ra kuchliroq ko‘rsatishga , tasviriylikka xizmat qiladi: Suv toshqini : suv qirg‘oqdan sekin sekin chiqa boshlaydi. Birdan to‘g‘on buzilib keta boshlaydi. Uylarga ham suv kirib ketadi,- Qirg‘oqdan chiqa boshlaydi...Buzilib ketdi... suv kirib ketdi. Ovga chiqdik ... O‘rdaklar g‘aqqillaydi...Otaman- tegmaydi, otaman tegmaydi...O‘rdaklar g‘aqqillaydi...otdim tegmadi, otdim- tegmadi – tegmadi... yugurib bordim qarasam tulki meni pisand qilmaydi- pisand qilmadi. Bunda matnning oldingi qismi hikoyaning o‘tgan zamon planida ekanini ko‘rsatib turadi.□ Demak bunday ko‘chirishlar ko‘pincha qo‘shma gaplarda bo‘ladi.

Kelasi zamon folrmalarining o‘tgan zamon ma‘nosi uchun qullanishi to‘satdan kutilmaganda bo‘lgan ishlarni (o‘tgan tasodiflar), intensiv , tez bo‘lgan

harakatlarni, hodisalarni chogʻishtirishda (boʻlgan harakat bundan oldin boʻlgan harakatlarga nisbatan kelasi deb qaraladi ), oʻtmishda takrorlangan harakatlarni bundagi izchillikni berishda, tezkor bayon qilishda uslubiy vazifani bajaradi. DJaryoda kema suzib bormoqda: baʼzan tinch boradi, baʼzan toʻlgʻanadi.- Tinch bordi,-toʻlgʻondi. 2.Bola yugurib keldi: baqiradi, biqinini ushlaydi. Keyin bilsak koʻylagining ichiga ari kirib qolgan ekan... baqirdi... ushladi...

Kelasi zamon formasining hozirgi zamon yo oʻtgan zamon maʼnolarida qoʻllanilishi yana shu bilan ham bogʻliqki, bu zamon formasi bajarilishi moʻljallangan, amalga oshishi mumkin boʻlgan, lekin kelasi zamonning maʼlum payti bilan bogʻlanmagan harakatni bildiradi. (oʻtgan zamon feʼli nutq soʻzlanayotgan paytdan oldin – “oʻtgan” vaqtning maʼlum paytida bajarilgan harakatni bildiradi.)

Oʻtgan hodisalarni maʼlum maʼno bilan hikoya qilishga mos keladigan bunday koʻchirish folklor asarlarda koʻproq uchraydi.

Masalan:

Tutashtirma menday mohi, mardingni

Gunohkor qilganman oʻz farzandimni

Men tutashib turgan vaqtda kelasan

Oʻzing asli meni axmoq bilasan

“Shirin va Shakar ” dostonidanolingan bu parchada kelasan , bilasan feʼllari oʻtgan zamon maʼnosi uchun koʻchirilishi hodisasini juda kam uchratdik. Bunday koʻchirishningg yuqorida koʻrsatilgandan tashqari yana quyidagi koʻrinishlari aniqlandi:

Kelasi zamon formalari oʻtgan zamon eshitilganlik maʼnosi uchun qoʻllanadi. Matnda ham eshitilganlik feʼli formasi boʻladi. Misollar: Yigit... nihoyat, keksayganida, oʻz qishlogʻiga qaytadi, kelib koʻrsa daryo boʻyida bir tegirmon qad koʻtaibdi. Shu manzilda ozgina hordiq , chiqarmoqchi boʻlib turgan ekan, bir kampir unga eshik ochadi. U kampirni tanib qolibdi. (Jumaniyoz Jabborov).

Baʼzan matnlarda oʻtgan zamon eshitilganlik feʼli boʻlmasligi ham mumkin. Kelasi zamon formasining oʻtgan zamonning bu turi uchun (eshitilganlik)

ko'chirilayotganligi matnning umumiy mazmunidan bilinib turadi. Masalan, eshitganmisiz,...dadam boyaqish bir boyda malay ekan. Boshpanasiz, qora chaqasiz, g'irt qashshoq. Lekin bu malay yigit bilan xo'jayinning qizi bir birlarini juda sevib qolishadi. Biroq bu sirni kimga aytadilar? U vaqtlarda xo'jayinlar kambag'allarni odam qatoridan chiqqan hisoblashgan. (Oybek).

2. Aniq kelasi zamon fe'l formalari tarixiy o'tgan zamon ma'nosi uchun qo'llanadi. Nutq paytidan ancha oldin bo'lib o'tgan voqealarni tasvirlashda kelasi zamonning bu turidan ham foydalaniladi. Bu usul ko'proq harakatning nutq paytidagi natijasi ma'nosini beish uchun ishlatiladi. Misollar : Qani bu shag'arda nima gap bor? Isfaxonni katta shahar deb eshitaman, kirib ko'rganim bo'lsin (Fozil Yo'ldosh o'g'li). Bay – bay –bay! Hay attang o'rtoq Odilov, siz ayting shu gaplar rostmi? Ayting, Dehqonboy.

-Albatta rost-da! Ukam yozadi-yu, yolg'on bo'ladimi! (A.Qahhor).

Matndagi fe'l formali (eshitaman , yozadi-yu) o'tgan zamon fomasi bilan berilsa, voqeadagi tasviriylik yo'qolib, oddiy xabarga aylanib qoladi.

3. Aniq kelasi zamon formalari o'tgan zamon davom fe'li mazmunini ifodalashi ham mumkin. Masalan : Ko'chada odai serob. Bolalar to'palonda baqirgan, yoqalashgan... Angrayib, boshimda tugun, dam tuyalarga, dam daraxt boshidagi qushlarga qarab qoqila- suqila boraman. (Oybek : kelasi zamon fe'li boraman – “borardim” ma'nosi uchun ishlatilgan.)

## XULOSA

1. O‘zbek tilshunosligida fe‘l zamon formalarining ko‘chma qo‘llanishi – turli ma’no nozikliklarini bildirish, ifodalilik , tezkorlik , badiiy tasvir, “jonlantirish” uchun xizmat qiladigan, asarning janr xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan bu vositadan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

2. O‘zbek tilida fe‘l zamon ko‘rsatkichlarining ko‘chma qo‘llanishi ayniqsa , hozirgi va kelasi zamon formalarida ko‘p uchraydi.

3. Hozirgi zamon fe‘l ko‘rsatkichlari o‘tgan zamon ma’nosi uchun ham qo‘llana oladi.

4. O‘tgan zamon formasi hozirgi zamon ma’nosi uchun : 1) Yaqin o‘tgan zamon formasi- aniq hozirgi zamon ma’nosi uchun ; 2) O‘tgan zamon eshitilganlik fe‘li-hozirgi – kelasi zamon ma’nosi uchun; 3) tarixiy o‘tgan zamon fe‘li hozirgi – kelasi zamon ma’nosi uchun.

5. O‘tgan zamon formasi kelasi zamon ma’nosi uchun: 1) yaqin o‘tgan zamon formasi- kelasi zamon davom fe‘li ma’nosi uchun. 2) yaqin o‘tgan zamon formasi-kelasi zamon gumon fe‘li ma’nosi uchun. 3) tarixiy o‘tgan zamon formas – aniq kelasi zamon ma’nosi uchun. 4) o‘tgan zamon eshitganlik formasi-aniiq kelasi zamon fe‘li ma’nosi uchun.

6. Kelasi zamon formasi hozirgi zamon ma’nosi uchun: 1) kelasi zamon formasi hozirgi –kelasi zamon fe‘li ma’nosi uchun. 2) kelasi zamon formasi-konkret hozirgi zamon fe‘llari ma’nosi uchun.

7. Kelasi zamon formasi- tarixiy o‘tgan zamon fe‘li ma’nosi uchun: 1) kelasi zamon formasi- o‘tgan zamon davom fe‘li ma’nosi uchun qo‘llanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Каримов И.А. “Юксак маънавият ва енгилмас куч” Т.Маънавият , 2008.
2. Абдурахмонов Ғ.А. Ўзбек адабий тилининг стиликтик нормалари. Ўзбек тили ва адабиёти , 1960 1- сон.
3. Асқарова М.А. Ҳозирги замон ўзбек тилида қўшма гаплар. Тошкент, 1960.
4. Абдуллажонова Ж.А. “Ўтган замон феъл формаларининг ҳозирги замон маъносида қўлланилиши. ” Ўзбек тили ва адабиёти масалалариТ. 1971.
5. Абдуллажонова Ж.А. “Феъл замон формаларининг кўчма қўлланишига доир” Совет мактаби, 1972 11- сон.
6. Абдуллажонова Ж.А. “Феъл замон формаларининг услубий хусусиятлари Т.1993.
7. Баровков А.К. ва бошқалар Ўзбек тили дарслиги 1 қисм Тошкент 1958.
8. Жуманиёзов Р ўзбек тилида феъл замонлари. Совет мактаби., 1953 й , 3 – сон.
9. Жўраева Ж.М. Келаси замон феъллари. Феъл замонлари. Тошкент. 1962.
- 10.Коклянова А.А. Категория времени в современном узбекском языке. М.1963.
11. Кононов А.Н. Грамматика узбекского языка. Тошкент. 1948.

12. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М.-Л. 1960.
13. Мирзаев. М, Усмонов.С, Расулов И. Узбек тили. Тошкент. 1966 .
14. Нутқ маданияти масалалари бўйича республика илмий конференциясининг материаллари. Тошкент.1969.
15. Решетов.В.В. Современный узбекский язык. Ч. 1. Тошкент. 1946.
16. Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. Тошкент. 1961.
17. Содмиқова М. Ўзбек тили стилистикасининг баъзи масалаларига доир. Ўзбек тили ва адабиёти. 1971. 6-сон.
18. Содикова М. Феъл стилистикаси. Тошкент. 1975.
19. Сулаймонов А.Х. Ўтган замон феъллари. Феъл замонлари. Тошкент. 1962.
20. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент. 1965.
21. Шукуров Ш.Ш. Настоящие и будущие времена глагола в письменных памятниках староузбекского языка. АКД. М.1960.
22. Шукуров Ш.Ш. Феъл тарихидан. Қадимги туркий ёдгорликлар тилида майл ва замон формалари. Тошкент. 1970.
23. Шербак А.М. Грамматика староузбекского языка.М.Л.1962.
24. Ҳожиёв А. Ҳ. Феъл. Тошкент . 1973.
25. Ҳожиёв А.Х. Ҳозирги замон феъллари . Феъл замонлари. Тошкент. 1962.

26. Ҳожиёв А.Ҳ. Ўзбек тилида феълнинг замон формалари. Ўзбек тили ва адабиёти. 1968, 2 сон.
27. Ҳожиёв А.Ҳ. Феълнинг ўтган замон формалари. Ўзбек тили ва адабиёти. 1969. 2 сон.
28. Ҳозирги замон ўзбек тили. Тошкент. 1957.
29. Ҳозирги замон ўзбек адабий тили. Тошкент. 1980.
30. Гуломов А.Ғ. Феъл. Тошкент. 1954.
31. Гуломов А.Ғ. Ўзбек тили синтаксисининг баъзи масалалари. Ўзбек тили ва адабиёти. 1968. 2 сон.
32. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Бухоро. 2009.
33. Қиличев Э., Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. Бухоро. 2005.
34. Қиличев Э. Услубият назарияси. Тошкент, 2006.